

TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA MUTAFAKKIRLAR FIKRLARIDAN FOYDALANISH.

Shahrisabz davlat pedagogika insituti

Pedagogika fakulteti Tabiiy fanlar

kafedrası o'qituvchisi **Alimardonova Mo'tabar**

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

2.22-guruh talabasi **Mahmudova Asila Ortiqovna**

asilamahmudova802@gmail.com

Annotatsiya

Tabiat inson hayotining ajralmas qismidir. Chunki inson bu dunyoda paydo bo'libdiki yer yuziga o'z hukmronligi o'rnatib o'z ozuqasini tabiatdan olgan. Bir necha asrlar davomida olimlar va faylasuflar tomonidan tabiat o'rganib kelingan. Ular Tabiatni insonning hayoti va manavyatining ajralmas qismi ekanligini takidlab ketganlar. Shu asnosida jonli tabiat haqida o'z asarlarda yoritgan mutafakkirlar olimlarimizdan Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, G'azzoliy, Forobiy va yunon faylasuflaridan Aristotel va Suqrotning qarashlari va fikrlari tahlili ushbu maqolada keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mutaffakkir, falsafa, hikmat, inson va tabiat, tabiatni anglash, ekologiya, ilm, tafakkur, donishmandlik, muvozanat, ma'naviyat, tabiatga muhabbat.

Abstract

Nature is an integral part of human life. Since the emergence of humanity on Earth, people have established their dominance over the planet and obtained their sustenance from nature. For centuries, scientists and philosophers have studied nature,

emphasizing its significance as an inseparable aspect of human life and spirituality. In this context, great thinkers and scholars such as Abu Rayhan Biruni, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Gazoliy, Forobiy, as well as ancient Greek philosophers like Aristotle and Socrates, have highlighted the importance of living nature in their works. This article analyzes their views and thoughts on the relationship between nature and human life.

Keywords: Thinker, philosophy, wisdom, human and nature, understanding nature, ecology, science, contemplation, wisdom, balance, spirituality, love for nature.

“Tabiat” so’zi arab tilidagi “tab” so’zidan olingan bo’lib, “xususiyat”, “xarakter”, “temperament” yoki “tabiiy holat” kabi ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, u “yaratilish”, “paydo bo’lish” ma’nolariga ham ega. O’zbek tilida “tabiat” so’zi odatda kengroq ma’noda ishlatilib, yuqorida aytib o’tilganidek, Yer yuzidagi barcha tirik va noorganik narsalar, tabiiy hodisalar va jarayonlarni o’z ichiga oladi. O’rta Osiyo, xususan O’zbekiston tabiatshunoslik ilmi, fan va madaniyati qadimdan taraqqiy etgan mamlakatlardan ekanligi muqarrar. Chunki hozirgi kunda olib borilgan va borilayotgan arxeologik qazilmalar, tarixiy qo’lyozmalar, mamlakatimizda va xorijda O’zbekistonning fani va madaniyat taraqqiyoti to’g’risida chop qilinayotgan ilmiy maqolalar, to’plamlar va kitoblar fikrimizni tasdiqlaydi. Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy – qomusiy olim, mutafakkir. 973 yil 4 sentyabrda kat shahrida tug’ilgan. Beruniy yer qiyofasining o’zgarishi o’simlik va hayvonot dunyosining o’zgarishiga, tirik organizmlarning ham o’z navbatida yerning tarixiy taraqqiyotida uning o’zgarishiga ta’sirining bo’lishi kerak deb hisoblaydi. Beruniy «Saydona» degan asarida 116 tur dori-darmonlarni tavsifi keltiriladi. Ularning 750 tasini turli o’simliklardan, 101 tasini hayvonlardan, 107 tasini esa minerallardan tayyorlanishi haqida «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» degan asarlarida o’simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o’zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltiriladi. Beruniy tabiat haqida shunday fikrlarni aytib o’tadi: Abu Rayhon Beruniy: “Tabiat — bu sirli kitob, uni o’qish uchun ilm kerak.

Bu fikr tabiatni tushunish uchun ilm-fan va tajriba muhimligini ko'rsatadi. Imom G'azzoliy: "Tabiatning har bir zarrachasi donishmandlik va hikmat bilan yaratilgan." Bu fikr tabiatda yuksak tartib va ilohiy qudrat mujassam ekanligini anglatadi. Abu Ali Ibn Sino Qomusiy olim, mutafakkir, tabib, faylasuf, shoir. 980 yil avgustda Buxoro yaqinida Afshona qishlog'ida tug'ilgan. 1037 yil 18 iyunda Isfahonda vafot etgan. Buxoroda o'qigan. 10 yoshida Qur'onni yod bilgan. Bizgacha 160 ga yaqin asari yetib kelgan. «Kitob ush shifo», «Najot kitobi» ilmiy asarlari jahonga mashhur. 5 jildli «Kitob al-qonun fit-Tibb» ko'p asrlar davomida tibbiyotda asosiy dastur bo'lib kelgan. U ko'pgina asarlarida matematika, kimyo, botanika, zoologiya, astronomiya va ayniqsa koinot sirlari ustida bosh qotirib, inson organizmi tabiatning bir bo'lagi ekanligi, hamda odam va olam o'zaro vobastaligi, inson mikrokosm va koinot, xususan quyosh makrokosm sifatida o'zaro ta'kidlagan.

Zahiriddin Muhammad Boburning Boburnoma asarida tabiatga oid fikrlari nihoyatda jonli va tasviriy ifodalangan. U tabiatni sevgan, go'zallikka katta e'tibor bergan va o'z asarida ko'plab joylarning tabiatini batafsil tasvirlab bergan. Quyida Boburning Boburnomadagi tabiatga oid qarashlarida Tabiatning go'zalligiga bo'lgan muhabbati aks etadi. Bobur o'z yurti Farg'ona vodiysining tabiatini sevgi bilan tasvirlaydi. U tog'lar, daryolar, bog'lar va ob-havo haqida ma'lumot berib, ularning nafisligini ta'riflaydi. Masalan, u Andijonning iqlimi yoqimli, havosi toza, suvi musaffo ekanini yozadi. Bobur o'z yurishlari davomida ko'plab daryolar va soylarni kuzatgan. Ularning shaffofligi, oqimining tezligi va suvning ta'mini ta'riflaydi. Masalan, Hindistonning Gang daryosi haqida yozar ekan, uning juda katta va serhosil ekanini ta'kidlaydi. Bog' va gullar haqida fikrlarida Bobur tabiatni bezab turadigan bog'-tog'larni juda yaxshi ko'rgan. U Samarqand, Andijon va boshqa shaharlardagi bog'larning tuzilishi, unda o'sadigan mevali daraxtlar va gullar haqida ma'lumot beradi. Hindistonga borgach, u yerning tabiati unga yoqmaganini, chunki havo issiq va nam, daraxtlar boshqacha ekanini yozgan. Movarounnahrda va Xurosonda shifoxonalar uchun maxsus binolar qurilgan. XV asrda Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan bunday jamoat shifoxonasi «Dor-ush shifo» nomi bilan yuritilgan. Shifoxonalar

ochishga Alisher Navoiy katta hissa qo'shgan. Balki bu fanlarning «shakllanish va rivoj topish» davrida tabiatshunoslik atamasi muomalada bo'lmagandir, lekin barcha tibbiyotga, tabiatga, astronomiya, fizika, ximiya, koinot qismlari – oy, yulduzlar, yer shari va dengiz okeanlarini o'rganish, tabiat qismlari, tabiiy sharoit, muhit va uning tirik organizmga ta'siri olimlarning fikr markazida turgan. Xususan Abu Ali Ibn-Sinodek buyuk olim kishi organizmini o'rganar ekan, kishining tana tuzilishi qonuniyatlarini o'rganishga, unda sodir bo'ladigan kasalliklarni kelib chiqish va tarqalish xususiyatlari, bu kasalliklarni davolash – uslub, amaliyotlarini tabiat, yashash muhiti bilan bog'lagan. Qadimiy yunoniston ulamolaridan yana biri melodiyan oldin 384-322 yillarda yashagan Aristotel Arastu nomi bilan Markaziy osiyoda yuksak hurmatga molik tabiatshunoslardan. Melodiyan 367 yildan binoan Platon shogirdi 365 yilda «Likkey» deb nomlangan o'z shaxsiy maktabini ochgan Arastu o'z davrining barcha fizika, matematika, biologiya, astronomiya va boshqa tabiatshunoslik fanlariga oid ma'lumotlarni umumlashtirgan. Uning bizga qadar yetib kelgan asarlarini shartli suratda yetti qismga bo'lish mumkin. SHular orasida biz uchun muhimi fizik-astronomik asarlari bo'lib, ular o'zida «Fizika», «Osmon haqida», «Vujudga kelish va yo'q bo'lish haqida», «Meteorologiya» biologik traktati: «Jon haqida», «Hayvonot olami tarixi», «Hayvonlar harakati» kabilar hisoblanadi. Arastu nazariy masalalarining «bosh filosofiya»si sifatida fizika va biologiyani qabul qilingan bo'lib, ular bir-biri bilan qorishib ketgan. Arastuning asosiy g'oyasi organik olam (koinot - falakiyot)ning oxiri borligi; olamni harakatga keltiruvchi boshqaruvchi kuch (iloh)ning mavjudligi; olloh (xudo) bekorga yoki bilmay (sababsiz) qolmasligi; fizika umumiy qonunlarini inkor qilish; tabiatning narvon shaklida oddiydan murakkabga tomon nerxaik tuzilishi va uning har xil pog'onasini o'z o'rni bo'lib, yuqori pog'onasi pastki pog'onaga nisbatan ustunligi va muhimligi bilan farq qiladi va nihoyat koinotni va doimiyligini inkor etishidan iborat.

Yuqorida nomli keltirilgan O'rta asr olimlarning va mutafakkir olimlarning astronomiya, matematika, falsafa, tibbiyot, kimyo, geodeziya va boshqa sohalardagi kashfiyotlari butun dunyoda ilm fanning yangi tarmoqlari paydo bo'lishida, ayrim fan

sohalarining yuqori bosqichga chiqishida salmoqli hissa qo'shgan. O'rta Osiyo jumladan, O'zbekistonda tabiatshunoslik rivoji muttasil ravishda davom etgan va hozir ham bu mamlakatda tabiatshunoslikning tegishli sohaları buyicha (yadro fizikasi, quyosh energiyasi, o'simliklar kimyosi) dunyodagi mamlakatlar orasida birinchilar qatorida turadi.

Xulosa

Tabiat insonning ongini, tafakkurini va qalbini shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Mutafakkirlar azaldan tabiatni inson hayoti va ma'naviyatining ajralmas qismi deb bilganlar. Abu Rayhon Beruniy, Aristotel, Konfutsiy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar tabiat qonuniyatlarini o'rganib, uni inson taraqqiyotida asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatganlar. Tabiat inson uchun buyuk ustozdir. Uni kuzatish, o'rganish va undan saboq olish har bir avlodning muhim vazifasidir. Mutafakkirlarning fikrlariga tayanib aytish mumkinki, tabiat bilan uyg'un yashash nafaqat insonning ma'naviy va aqliy kamoloti, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham zarurdir. Tabiatni asrab-avaylash, undan oqilona foydalanish va uning qonuniyatlarini o'rganish kelajak avlodlar oldidagi eng ulug' burchlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Tabiiy fanlar" kafedrasi "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fanidan o'quv uslubiy majmuasi. 2024
2. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T. O'qituvchi, 2005.
3. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T. O'zbekiston, 2003.
4. Tursunov X., Raximova T. Ekologiya. T. 2006.
5. Sultonov P. Ekologiya. Toshkent. 2007 y.

6. “Tabiatshunoslik”: 3-sinf umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: “Cho‘lpon” NMIU, 2012.
- 7 Baxronov A. “Tabiatshunoslik”: 4-sinf umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. – Toshkent:” Sharq” NMIU, 2011.
- 8.Djumayeva M. “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etishning metodik asoslari” // “International Conference on Multidisciplinary Science” 2024.